


INGLIZ VA OZBEK TILIDA SINTAKTIK OMONIMIYA JARAYONI



Farhodova Kumushoy Qahramon qizi

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti
O'zbek tili va adabiyoti yo'nalish talabasi.

Masharipova Maftuna G'ayrat qizi

Ajiniyoz nomidavgi Nukus davlat pedagogika instituti
O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi talabasi.

Baxodirova Farangiz Mansurbek qizi

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti
O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Omonimiya ko'p qirrali lingvistik hodisa bo'lib, turli darajadagi til birliklarida kuzatiladi. Hozirgi kunda jahon tilshunosligida leksik, morfologik, fonetik, grafik omonimiya, shuningdek, yasama sozlar omonimiyasi va sintaktik omonimiya kabi turlariga duch kelishimiz mumkin. Shu paytgacha omonimiya asosan leksik-semantik va morfologik jihatdan organilganligining asosiy sababi bu hodisa tilning ushbu darajali birliklari doirasida koproq namoyon bolishidir. Ushbu maqolada ingliz va ozbek tillaridagi sintaktik omonimlarning oziga xos xususiyatlari, ozbek va ingliz tili sintaktik birliklarida omonimiya hodisasining shakllanishiga oid qarashlar misollar yordamida yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: sintaktik omonimiya, sintonimlar, leksik omonimlar, morfologik omonimlar.

Аннотация: Омонимия является многогранным языковым явлением и наблюдается на разных уровнях языковых единиц. В настоящее время в мировой лингвистике встречаются такие виды, как лексическая, морфологическая, фонетическая, графическая омонимия, а также омонимия искусственных слов и синтаксическая омонимия. Основная причина, по которой омонимию изучают преимущественно с лексико-семантической и морфологической точек зрения, заключается в том, что это явление в большей степени проявляется в рамках данных уровневых единиц языка. Однако омонимия проявляется и в конкретных выражениях внутри единиц другого уровня. В данной статье с помощью примеров освещаются особенности синтаксических омонимов в английском и узбекском языках, взгляды на формирование явления омонимии в синтаксических единицах узбекского и английского языков.

Ключевые слова: синтаксическая омонимия, синонимы, лексические омонимы, морфологические омонимы.

Shubhasiz, odamning tilni idrok qilish qobiliyati unga sintaktik birliklarning ham semantik, ham sintaktik tuzilishi haqida aniq tasavvurga ega bo'lish imkonini beradi. Ayrim hollarda insonlar bitta sintaktik birlik vositasida vogelikning turli tomonlarini, vaziyatli qarashlarni mantiqiy tasavvur qiladi, lekin u nutqiy vaziyat yoki kontekstdan kelib chiqib ifodada zaruriy element sifatida ulardan faqat bittasini tanlaydi. Bunday hollarda omonim xarakterdagi sintaktik birliklarga e'tibor beriladi. Sintaktik omonimlar (sintonimlar) bir xil tuzilishga ega bo'lgan, lekin ikki yoki undan ortiq gapni ifodalash jihatidan farq qiladigan sintaktik birliklardir. Aynan bir xil strukturaviy tuzilishga ega bo'lgan bunday sintaktik birliklarda turli ma'nolar gaplar ichki tuzilishi orqali anglashiladi. Ayrim ilmiy manbalarda shu xususiyat asosida sintaktik omonimiyaning alohida turi ichki sintaktik omonimiya (chuqur sintaktik omonimiya) alohida turga ajratilgan.

Ayrim manbalarda sintaktik omonimlar sintaktik birliklar deb yuritilib, ularda ibora yoki gap turli bolaklarga bolinadi yoki grammatic jihatdan har xil talqin qilinadi, ular orasida sintaktik birliklar ham tushuniladi, har bir sintaktik munosabatlar turlicha belgilanadi. N.N. Romanova va A.V. Filippovlar ham nutqdagi sintaktik munosabatlar sintaktik omonimiyadir deb oz qarashlarini bergan. Ular gapdagi sozlar ortasidagi noaniq sintaktik boglanishlar natijasida hosil bolgan ikki xil tushunchaga nisbatan omonimiya atamasini ozbek tilidagi sintaktik ambiguitlar atamasini qollaydi. Sintaktik omonimlarni bu tarzda belgilash, asosan, grammatic tuzilish nuqtai nazaridan bo'lib, unda sintaktik birlikning semantik tuzilishiga jiddiy e'tibor berilmaydi. Shuningdek, nutqda kuzatiladigan ixcham tuzilishga ega bo'lgan, turli bo'laklarga bo'linmaydigan gaplarda ham omonimlik hodisasi kuzatilishi mumkin. Jumladan: o'zbek tilidagi, Qoy!; Tush!; To'y!; Yoz!; Rahmat!; Boq! kabi.

T.A.Lipatovning fikricha, sintaktik omonimiya (sintonimiya) leksik va morfologik omonimiyadan ozini yashirin holatda tutishi bilan farq qiladi. Ularning sintonim ekanligini oshkor qilish kerak. Buning sababi shundaki, hatto insonga xos "til tuyg'usi" ham sintonimlarni aniqlashda bevosita yordam bera olmaydi.

Muayyan sintaktik birlikda omonimiya togridan-togri korinmasligi mumkin, nutq sozlovchilari ham sintaktik birlikning omonimlik harakterini anglamasligi mumkin. Sintaktik omonimiyaning "yashirin holati" og'zaki muloqot jarayonini, nutqiy vaziyatni yoki kontekstni talab qiladi. Sintaktik birliklarda omonimiya nutqiy vaziyat yoki kontekstga qarab shakllanmasdan, aynan omonim sintaktik birliklar nutqda qanday propozitiv manoni ifodalashi kontekst yoki nutqiy vaziyat asosida aniq bolishi maqsadga muvofiqdir.

Sintaktik omonimlar nutqda tuzilishi jihatidan bir xil korinishga ega bolgan omonim sozlar orqali amalga oshadi. Bunday sintaktik shakllarning tuzilishi kopinchalik toldiriladi. Leksik va morfologik omonimlar bir xil sintaktik birliklarning ham omonim xususiyatga ega bolishini

taminlaydi. Ozbek tilida omonimlik belgisi bolgan sintaktik omonimlarning tarkibiy tuzilishida ham ayrim leksik-morfologik birliklar ishtirok etadi. Bunda ular sintaktik omonimlar yasash vositasiga aylanadi. Demak, sintaktik omonimiya murakkab lisoniy hodisa bolib, unda turli darajadagi birliklarning ozaro tasiri kuzatiladi. Quyidagi misolni korib chiqib yanada fikrimizni aniqlashtiramiz: Otinbibi dam u, dam bu xotin oldiga boradi, labi labiga tegmaydi. (A.Muxiddin, Qirq baxt egasi). Bu misoldagi labi labiga tegmaydi iborasi sintaktik omonimiyaning shakllanishiga olib kelgan. Uning soz birikmasi sifatida qollanishi oldingi gapdan anglashiladi. Agar bu misol matndan olinsa, labi labiga tegmay pichirayotganligi, gapiroayotganligi, so'zlayotganligi, duo o'qiyotganligi" yoki "sovuqdan labi-labiga tegmayotganligi, labi labiga tegmay shoshayotganligi, labi labiga tegmay she'r o'qiyotganligi" kabi ish-harakat nazarda tutilganligi aniq emasligini ko'rishimiz mumkin.

Ingliz tilida ham xuddi shunday misollarni ko'p uchratishimiz mumkin. Masalan: "The chicken is ready to eat" - ushbu gapda ham sintatik omonimiya hodisasi bo'lib gap ma'nosini turli xil tushunish mumkin ya'ni "Jo'ja pishirilgan va yeyish uchun tayyor" yoki "Jo'ja ovqat yeyish uchun tayyor turibdi". Yoki "They are cooking apples," gapida ham "cooking" so'zi orqali sintaktik omonimiya hosil bo'lgan.

Foydalanlgan adabiyotlar:

1. Lipatov A.T. Semantic aspects of the manifestation of Russian homonymy at different linguistic levels // Avtoref. diss. DSc. - Leningrad, 1990.
2. Romanova N.N., Filippov A.V. Dictionary. The culture of speech communication: ethics, pragmatics, psychology, 2010.
3. Zherebilo T.V. Dictionary of linguistic terms. Ed. 5th. –Nazran: Publishing house "Pilgrim". 2010.
4. Sayidirahimova, N.S. (2020) ОБЩИЕ ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ВОПРОСЫ СИНХРОННО ТИПОЛОГИЧЕСКОГО ИЗУЧЕНИЯ ЯЗЫКОВЫХ ЯВЛЕНИЙ. НАРЕЧИЯ ЦЕЛИ (зарфи мақсад // мақсад равиши) International Journal of Research Available at <https://edupediapublications.org/journals>. Available online: <http://edupediapublications.org/journals/index.php/IJR/R>. - Indiya, 2020.